

## **BARKAMOL AVLODNI SHAKLLANTIRISHDA OILA TARBIYASINING TA'SIRI**

*Samarqand VPYMO 'MM katta o 'qituvchisi  
Ergasheva Gulshoda Amirovna*

Mustahkam oila va baxtli turmush avvalambor oila quradigan yoshlarning o'ziga, ularning aql-zakovati, ma'naviy fazilatlariga, oila, jamiyat oldidagi o'z burchi va mas'uliyatini chuqur anglab yetishiga bog'liqliqdir. Darhaqiqat, yoshlar oila qurgunga qadar mustahkam oila to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lsalar va ularni to'g'ri yo'naltirsalargina ertangi kunda o'zlarining oilalarini mustahkamligini ta'minlashlari aniqdir. Buning uchun ijtimoiy muhit va barcha ta'lim muassasalaridan boshlab har bir yosh avlodning ertangi kun oila boshqaruvchisi va oila bekasi sifatidagi xususiyatlarini to'g'ri shakllantirilishiga erishish lozim. Jumladan, oila, maktabgacha ta'lim muassasasi, umumta'lim maktabi, akademik lisey va kasb hunar kolleji hamda oliy ta'lim muassasalari hamkorligida bugungi yoshlar, ya'ni ertangi mustahkam oila egalarini o'z vazifalarini to'g'ri anglab, uni bajarish ko'nikmalarini shakllantirilishiga erishishimiz maqsadga muvofiqdir. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda bir qancha omillar umumlashmasiga e'tibor qaratish maqsadga muvoqifdir. Yoshlar o'zlarini oila qurishga tayyorman, deyishlari uchun quyidagi fazilatlar majmuasiga ega bo'lishlari lozim:

- 1) Avvalo muayyan axloqiy fazilatlar bo'lmog'i lozim, ya'ni, shaxsning bo'lg'usi turmush o'rtog'i, bo'lajak farzandlari, yaqin qarindosh-urug'lari oldida yangi, ilgari tajribasida bo'lmagan mas'uliyatlarni bo'yniga olishni taqozo etadi. Ushbu mas'uliyatlar va majburiyatlar hayotda yangi rollarni bajarishga hozirlikni nazarda tutadi.
- 2) Shaxslararo munosabatlarga, hamkorlik qilishga psixologik tayyorlik ham o'ta muhimdir. Oilaviy hayotda amalga oshiiriladigan ko'plab vazifalar va mas'uliyatlar orasida muomala qilish odobining bo'lishi talab etiladi.
- 3) Turmush o'rtog'inining his-kechinmalariga o'rtoq bo'lish, ularni huddi o'zinikiday his qilish ya'ni empatiya hissiningbo'lishi ham muhim omillardandir. Oilaviy hayotga tayyorlik avvalo o'zgalarni tushunish, uning o'rniga o'zini qo'ya olish, qalbiga yo'l topishni taqozo etadi.
- 4) Nikohga kirish uchun inson estetik jihatdan o'zini yuksak madaniyat sohibi sifatida tasavvur eta olishi lozim. Oila qurgach yoshlar yaqin qarindoshlar, mahalladoshlar, do'st-yorlar qurshovida bo'lar ekan, ular oldida yuksak insoniy madaniyat, did va xulq-atvorda ibratli bo'lishi muhim.
- 5) Oila har doim ham bir tekislikdan iborat emasligi, unda ba'zan nizoli vaziyatlar ham bo'lishi tabiiy jarayonligiga tayyor bo'lishni talab etadi. Qarashlarda, fikrlashda, hatti-harakatlarda nomutanosibliklar ham bo'lishi mumkinki, ana shunday nizoli, ziddiyatli vaziyatlardan konstruktiv tarzda chiqib keta olishga ham yoshlar tayyor bo'lishlari lozim .

Oilaviy munosabatlardagi yuqoridagi kabi omillar yoshlarni bir-birlarini yanada yaxshiroq bilib, anglab va tushunib olishlariga imkon ham yaratadi. Bularning barchasi uchun poydevor o‘z oilamiz muhiti hisoblanadi. Shu bois oilalarimizning mustahkamligini ta’minlashda yoshlarga oila qurgungacha bo‘lgan muddatga alohida e’tibor qaratilishi talab etilmoqda. Yaxshi oila odob-axloqli, ijobiy fe’l-atvorli va ibratli insonlarni tarbiyalaydi. Voyaga yetayotgan har bir yigit-qiz oila to‘g’risidagi yaxshi ko‘rsatma, yo‘riqnomा (ustanovka), qonun-qoidalarni yaxshi bilishi kerak va ularga amal qilishga tayyor bo‘lishi lozim. Davrlar o‘tishi va “zamonlar o‘zgarishi” bilan oilaning maqsad va vazifalari ham o‘zgarib, tobora takomillashib boraveradi. Oilaning asosiy vazifasi sog’lom avlodni kamol toptirishdan iboratdir. Har bir millat va jamiyatning eng qimmatli hazinasi-sog’lom, axloqiy barkamol oiladir. Hozirgi sharoitda oilalarga umuminsoniy va milliy qadriyatlarga tayangan, sharqona axloqiy xususiyatlar aks etgan ma’naviy-axloqiy munosabatlar qaror topmoqda. Oilada huquqiy, axloqiy va ruhiy asoslar takomillashib bormoqda. Oilada sog’lom axloqiy muhit, o‘zaro muomala madaniyati, axloqiy tamoyil chuqur ildiz otmasa, oilada bo‘shliq, salbiy holatlarning qaror topishi muqarrar. Oila mustahkam poydevorga qurilib, unda sharqona va jahon andozasiga monand axloqiy va ma’naviy qadriyatlar qaror topsa, sog’lom avlodni voyaga yetkazishda yetakchi o‘rinni egallasa, bunday oila ostonasidan Vatan, millat, inson kamoloti, yangi sog’lom avlod kelajagi boshlanadi. Har bir oilaning muqaddas vazifasi-qobiliyatli farzandlarni o‘stirish, ularni jismoniy, intellektual va ma’naviy tomondan yetuk qilib, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdan iborat. Ya’ni ham ma’naviy, ham jismoniy jihatdan sog’lom, barkamol inson faqat sog’lom oilada shakllanishi mumkin. Oiladagi sog’lom muhit va barqarorlik esa yaxlit jamiyat ma’naviy takomilining asosidir.

Umuman, xulosa shundan iboratki yoshlarning o‘zi voyaga yetayotgan va tarbiyalanayotgan oilalari va ta’lim-tarbiya maskanlaridan boshlab ertangi mustahkam oila boshliqlari va bekalari sifatida oilaviy hayotga tayyorlashga e’tibor qaratishimiz lozim. Shundagina kelajak avlod sog’lom va barkamol bo‘lishi muqarrar.